

**TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.07/2025.27.12.Yu.01.02
RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI HUZURIDAGI
DAVLAT SIYOSATI VA BOSHQARUVI AKADEMIYASI**

ISABAYEV AKMALJON TESHABOYEVICH

**FUQAROLARNING DAVLAT IDORALARIGA MUROJAAT QILISH
HUQUQINI TA’MINLASH MASALALARI**

12.00.02 – Konstitutsiyaviy huquq. Ma’muriy huquq.
Moliya va bojxona huquqi

**Yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2026

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)

Content of the abstract of the dissertation of the Doctor of Philosophy (PhD)

Isabayev Akmaljon Teshaboyevich

Fuqarolarning davlat idoralariga murojaat qilish huquqini ta'minlash masalalari.....3

Исабаев Акмалжон Тешабаевич

Вопросы обеспечения права граждан на обращение в государственные органы.....21

Isabaev Akmaljon Teshabaevich

Issues of ensuring the right of citizens to apply to state agencies.....41

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

List of published works

Список опубликованных работ.....45

**TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.07/2025.27.12.Yu.01.02
RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI HUZURIDAGI
DAVLAT SIYOSATI VA BOSHQARUVI AKADEMIYASI**

ISABAYEV AKMALJON TESHABOYEVICH

**FUQAROLARNING DAVLAT IDORALARIGA MUROJAAT QILISH
HUQUQINI TA’MINLASH MASALALARI**

12.00.02 – Konstitutsiyaviy huquq. Ma’muriy huquq.
Moliya va bojxona huquqi

**Yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2026

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2020.2.PhD/Yu368 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (ingliz, rus, o‘zbek (rezyume)) ilmiy kengash veb-sahifasida va “ZiyoNET” axborot ta’lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Xusanov Ozod Tillaboyevich
yuridik fanlar doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Qodirov Eshmuhammad Omonturdiyevich
yuridik fanlar doktori, professor

Yuldashev Sodiq Oqboyevich
yuridik fanlar nomzodi, dotsent

Yetakchi tashkilot:

**O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi
huzuridagi Yuridik kadrlarni qayta tayyorlash va
malakasini oshirish instituti**

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat yuridik universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.07/2025.27.12.Yu.01.02 raqamli ilmiy kengashning 2026-yil 31-mart soat 10:00 dagi majlisida bo‘lib o‘tadi (manzil: 100047, Toshkent shahar, Sayilgoh ko‘chasi, 35-uy. Tel.: (99871) 233-66-36; faks: (99871) 233-37-48, e-mail: info@tsul.uz).

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat yuridik universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (1482-raqam bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 100047, Toshkent shahar, Sayilgoh ko‘chasi, 35-uy. Tel.: (99871) 233-66-36).

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil 17-mart tarqatildi.

(2026-yil 17-martdagi 3-raqamli reyestr bayonnomasi).

A.M. Xashimhonov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi, yuridik fanlar doktori, professor

X.U. Turdiyev

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash kotibi, yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

I.R. Bekov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash huzuridagi Ilmiy seminar raisi, yuridik fanlar doktori, professor

Kirish (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Dunyoda fuqarolarni davlat organlariga murojaat qilish huquqini ta'minlash, uning konstitutsiyaviy-huquqiy mexanizmlarini takomillashtirish orqali murojaat qilishga bo'lgan huquqning cheklanishining oldini olish, fuqarolarning murojaat qilishga bo'lgan huquqini ta'minlash orqali davlat organlari bilan o'zaro munosabatini tartibga solish bugungi kun uchun dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. "Amnesty International" tashkilotining ma'lumotlariga ko'ra, 2025-yilda 2023-yilga nisbatan dunyodagi salbiy vaziyatlar natijasida fuqarolarning davlat organlariga murojaat qilish huquqi cheklangan, fuqarolarning davlat organlariga murojaat qilish orqali o'z fikrlarini erkin bildirish 19 ta mamlakatda yomonlashgan, O'zbekiston ham fuqarolarning murojaat qilish huquqi nisbatan cheklangan mamlakatlar qatoriga kiradi¹. Fuqarolarning murojaat qilish huquqini amalga oshirishning og'zaki va yozma, jumladan, elektron shakllari tizimli rivojlanmoqda. Elektron murojaat qilish "elektron hukumat"ning asosiy unsurlaridan biri hisoblanib, uning ta'minlanishi xalqaro darajada o'rganilmoqda. BMTga a'zo davlatlardan faqat 39,9 foizida elektron murojaatlar yoki shu kabi mexanizmlar mavjudligi² ushbu va murojaat qilish huquqini ta'minlash bilan bog'liq boshqa masalalarni chuqur o'rganish zaruratini ko'rsatadi.

Jahonda fuqarolarning davlat organlariga yoki xalqaro tashkilotlarga murojaat qilish huquqini ta'minlash, BMTning Inson huquqlari va asosiy erkinliklarini rag'batlantirish va himoya qilish huquqi va mas'uliyati to'g'risidagi deklaratsiyasi³ga asosan murojaatlar bilan bog'liq bo'lgan ma'muriy-huquqiy munosabatlarni liberallashtirish tendensiyasi kuzatilmoqda. Jumladan, Jahon banki ma'lumotlariga ko'ra, raqamli texnologiyalarning rivojlanishi sharoitida fuqarolar murojaatlarini veb-saytlar va ijtimoiy tarmoqlar orqali yuborish mexanizmi rivojlanmoqda. Shuningdek, murojaatlar bilan ishlashda yangi tuzilmalarning vujudga kelishi, murojaatlar bilan ishlovchi xodimlar malakasini doimiy ravishda oshirib borish kuzatilmoqda.

Mamlakatimizda xalq bilan muloqotni yanada kengaytirish orqali aholi muammolarini aniqlash va hal etish tizimining samaradorligini oshirish borasida qonunchilikni rivojlantirish taraqqiyot strategiyasi talablariga muvofiq amalga oshirilmoqda. Xususan, "O'zbekiston – 2030" strategiyasining xalq xizmatidagi davlat boshqaruvini tashkil etish va jamoatchilik boshqaruvini takomillashtirish bo'yicha islohotlari yo'nalishi doirasida 82-maqсад sifatida "murojaat qilish huquqini ta'minlash uchun tegishli mobil ilova tizimini yaratish, murojaatlarni kamida 80 foizini mahalliy darajada qanoatlantirish, hududlardagi ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni mahallaning o'zida hal qiladigan xalqchil tizim yaratish" belgilangan.

¹ <https://www.amnesty.org/en/documents/pol10/8515/2025/en/>

² Исследование ООН: электронное правительство 2024. Ускорение цифровой трансформации для устойчивого развития. С дополнением об Искусственном Интеллекте. – Нью-Йорк, 2024. – С. 61.

³ <https://www.ohchr.org/en/instruments-mechanisms/instruments/declaration-right-and-responsibility-individuals-groups-and>

Ushbu dissertatsiyada ilgari surilgan takliflar O‘zbekiston Respublikasining 2017-yil 28-dekabrda “Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to‘g‘risida”gi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 28-dekabrda “Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlash tizimini tubdan takomillashtirishga doir chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-4904-son, 2019-yil 17-yanvarda “Aholi muammolari bilan ishlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5633-son, 2023-yil 11-sentyabrda “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-158-son farmonlari, 2019-yil 19-fevralda “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Xalq qabulxonalarini faoliyati bilan bog‘liq nizomlarni tasdiqlash to‘g‘risida”gi PQ-4197-son qarori, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 7-mayda “Davlat organlarida davlat muassasalarida va davlat ishtirokidagi tashkilotlarda jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlash tartibi to‘g‘risida namunaviy nizomni tasdiqlash to‘g‘risida”gi 341-son qarori hamda sohaga oid boshqa normativ-huquqiy hujjatlardagi vazifalarni amalga oshirishga muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur dissertatsiya respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma‘naviy-ma‘rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Mamlakatimiz huquqshunos olimlaridan A.X. Saidov, X.T. Azizov, Z.M. Islomov, M. Mirakulov, M.A. Tillaboyev, U. Topilxonov, X. Odilqoriyev, I.A. Xamedov, O.T. Xusanov, N. Bekmirzayevlar murojaat qilish huquqini inson huquqlari va davlat boshqaruviga bog‘liq masalalarni, S. Yusupov, S. Yuldashov, O. Fayziyev, Y. Ollomovlar esa jismoniy shaxslarning murojaat qilishdagi ba‘zi jihatlarini alohida institut sifatida muayyan darajada tadqiq etganlar.

MDH davlatlarida fuqarolarning murojaat qilish faoliyatini tashkil etish mexanizmlarini takomillashtirishga oid izlanishlarni P.A. Belyakov, A.A. Dvorak, S.V. Kalinina, V.A. Metsheyagina, N.A. Rudakova, M.V. Skryabina, A.A. Titov, M.V. Baglay, N.S. Minko¹ kabi olimlar amalga oshirgan.

Shunga qaramasdan, fuqarolarning davlat idoralariга murojaat qilish huquqini tartibga solish, muvofiqlashtirish masalalari yuzasidan alohida monografik tadqiqot olib borilmagan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta‘lim muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasining ilmiy tadqiqot ishlari rejasiga kiritilib, “Davlat boshqaruvi va davlat xizmati tizimini isloh qilish muammolari” bo‘yicha ilmiy tadqiqotlarning ustuvor yo‘nalishlari doirasida amalga oshirilgan.

¹ Ushbu va boshqa olimlarning tadqiqot ishlari dissertatsiyaning foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatida keltirilgan.

Tadqiqotning maqsadi fuqarolarning davlat idoralariga murojaat qilish huquqini ta'minlash masalalarini takomillashtirishga qaratilgan tegishli xulosa, taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

mamlakatimizda fuqarolarning murojaat qilish huquqining tavsifi va shakllanish bosqichlari, qonunchilik bazasi rivojlanishi tendensiyalarini nazariy-huquqiy jihatdan o'rganish;

fuqarolarning murojaatlari turlari, shakllari, usullari tushunchalarini ishlab chiqish, uning mazmuni va yuridik tabiatini tavsiflash;

fuqaro murojaatlari bilan ishlash prinsiplarini aniqlagan holda murojaat yo'llanadigan davlat organlari tizimini ko'rsatib berish;

fuqarolarning murojaatlarini umumlashtirish, ularning ijrosi hamda nazorati qaysi davlat organlari tomonidan olib borilishi masalalarini o'rganish;

fuqarolarning murojaatlarini o'rganish va ko'rib chiqish tartibini, uning tashkiliy-huquqiy mexanizmlari hamda bu boradagi qonunchilik muammolari va xorijiy mamlakatlarning eng yaxshi tajribasini qiyosiy tahlil qilish;

fuqarolar tomonidan hududiy ijtimoiy-iqtisodiy masalalar yuzasidan kelib tushadigan murojaatlar bo'yicha qonunchilikni tahlil qilib, takomillashtirish yuzasidan tegishli takliflar ishlab chiqish;

fuqarolar murojaatlarini hal etishda Xalq qabulxonalarining huquqiy maqomi va murojaatlar bilan ishlash faoliyatini takomillashtirish yuzasidan tegishli tavsiyalar berish;

fuqarolarning murojaatlarini tizimlashtirish, toifalash bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Prezidentining virtual qabulxonasi maqomini ta'minlashning zamonaviy muammolarini tahlil qilish va tegishli ilmiy-nazariy xulosalar ishlab chiqish;

fuqarolarning murojaatlari bilan ishlashda yangi yo'nalish va jihatlarni, elektron vositalardan foydalanish yuzasidan tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqotning obyektini O'zbekiston Respublikasida fuqarolarning davlat idoralariga murojaat qilish huquqini ta'minlash masalalari bilan bog'liq ijtimoiy munosabatlar tashkil etadi.

Tadqiqotning predmetini O'zbekiston Respublikasida fuqarolarning davlat idoralariga murojaat qilish huquqini ta'minlash masalalariga oid nazariy-huquqiy qarashlar, murojaatlarning turlari va shakllari, fuqarolarning murojaatlari bilan ishlash sohasini tartibga soluvchi vakolatli organlar faoliyati, murojaat qilish huquqining ta'minlanishi, murojaatlarni ko'rib hal qilish mexanizmida Xalq qabulxonalari amaliyoti, xorijiy mamlakatlar qonunchiligi va tajribasi, yuridik fandagi mavjud konseptual yondashuv va huquqiy kategoriyalar hamda mazkur munosabatlarni tartibga soluvchi milliy qonunchilik hujjatlari tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot olib borishda tarixiy, tizimli-tuzilmaviy, formal-yuridik, qiyosiy-huquqiy, mantiqiy, ilmiy manbalarni kompleks tadqiq etish, so'rovnoma, induksiya, deduksiya, statistik ma'lumotlar tahlili hamda funksional yondashuv usullari qo'llanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

mamlakatda fuqarolik jamiyatini rivojlantirishning fundamental asoslarini mustahkamlash maqsadida har bir shaxsning yakka tartibda yoki boshqa shaxslar bilan birgalikda fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlariga murojaat qilish huquqiga ega ekanligi nazariy-huquqiy jihatdan asoslantirilgan;

insonning huquq va erkinliklarini samarali himoya qilish maqsadida har bir shaxs O'zbekiston Respublikasining qonunchiligiga va xalqaro shartnomalariga muvofiq, agar davlatning huquqiy himoyaga doir barcha ichki vositalaridan foydalanib bo'lingan bo'lsa, insonning huquq va erkinliklarini himoya qiluvchi xalqaro tashkilotlarga murojaat etishga haqli ekanligi asoslab berilgan;

mahalliy boshqaruvda hokimiyatlar bo'linish prinsipini ta'minlash hamda fuqarolarning xalq deputatlari viloyat, tuman, shahar Kengashiga qilgan murojaatlarini samarali hal qilish mexanizmlarini takomillashtirish maqsadida tegishli xalq deputatlari Kengashi deputatini hujjatlar, zarur axborot va ma'lumot materiallari bilan ta'minlash, shuningdek, deputatlik faoliyati bilan bog'liq masalalar bo'yicha mutaxassislarining maslahatlarini uyushtirish viloyat, tuman, shahar hokimliklari zimmasidan xalq deputatlari viloyat, tuman, shahar Kengashi kotibiyatiga o'tkazish lozimligi asoslantirilgan;

sayyor qabullar samaradorligini oshirish uchun barcha darajadagi davlat organlari va tashkilotlari, mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari rahbarlarining jismoniy shaxslarni va yuridik shaxslarning vakillarini joylarda sayyor qabul qilish bo'yicha jadvallari (yillik yoki yarim yillik) ishlab chiqilib, mos ravishda yuqori turuvchi davlat organlari va tashkilotlari rahbarlari, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi raisi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimlari tomonidan tasdiqlanishi lozimligi asoslab berilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

fuqarolarning davlat organlariga murojaat qilishining yuridik tabiati va mazmunini nazariy-metodologik jihatdan tushunish uchun ilmiy-amaliy qarashlar amaliyotda qo'llash uchun taklif etilgan;

fuqarolarning murojaatlarini tartibga solish sohasidagi milliy qonunchilikni tahliliy-tanqidiy o'rgangan holda normativ hujjatlarni umumlashtirib, normalardagi kolliziyalarni bartaraf etish zarurligi asoslantirilgan;

murojaatlar bilan ishlash tizimida fuqarolarning bu boradagi huquqlarini ro'yobga chiqarishda, huquq va erkinliklarning qonunlarda belgilanish darajasi emas, ularni ta'minlash yo'llari, mexanizmlarining mukammal bo'lishi ustuvor hisoblanishi asoslantirilgan;

murojaatlar to'g'risidagi qonunda belgilangan asosiy prinsiplarni kengaytirish zarurligi va asosiy prinsiplar qatoriga "murojaatlarni ko'rib chiqish, hal qilish jarayoniga jamoatchilikni jalb qilish"; "buzilgan huquq va erkinliklarni tiklash, yetkazilgan zararni qoplash"; "mas'uliyatsiz shaxslarni javobgarlikka tortish", "tuhmat, boshqalarni obro'sizlantiradigan murojaat mualliflarini javobgarlikka tortish" masalalarining prinsip darajasida e'tirof etilishi samaradorlikni kuchaytirishi lozimligi asoslantirilgan;

murojaatlar hamma vaqt ham ijobiy natija bermasligi, ayrim hollarda esa demokratiya tamoyillariga zid faoliyat yuritayotgan tizimlarda ulardan boshqa

shaxslarni quvg'in qilish, ta'qib etish va asossiz ravishda jazolash vositasi sifatida foydalanilishi mumkinligi asoslab berilgan hamda bunday holatlarga mutlaqo yo'1 qo'yib bo'lmasligi asoslantirilgan.

jamiyat rivojlanib borgan sari davlat va xalq o'rtasida muloqot kengayib, muloqotning yangi ko'rinishlari vujudga kelishi, tadqiqotda yangi tashkil qilingan "hokim yordamchilari" institutlari davlat bilan xalq o'rtasidagi muloqotning yangi ko'rinishi, vositasi ekanligi asoslantirilgan;

xorijiy mamlakatlar konstitutsiyalarida murojaat yo'llanuvchi organlar doirasi keng ekanligi, fuqarolar jamoat birlashmalari va o'zini o'zi boshqarish organlariga ham murojaat qilishi mumkinligi, bu amaliyotda mavjud bo'lib, qonunchiligimizda o'z ifodasini topmaganligi ilmiy jihatdan asoslantirilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot natijalarining ishonchliligi milliy qonunchilik normalari, rivojlangan davlatlar tajribasi, ishda qo'llangan usullar, anketa so'rovi, statistik ma'lumotlar hamda Xalq qabulxonalarining amaliyoti umumlashtirilganligi, tegishli hujjatlar rasmiylashtirilib, xulosa, taklif va tavsiyalarning amaliyotga joriy etilgani, natijalarning yetakchi milliy va xorijiy nashrlarda e'lon qilingani, vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlangani bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati undagi ilmiy-nazariy xulosalar, taklif va tavsiyalardan fuqarolarning davlat organlariga murojaat qilish sohasida ilmiy izlanishlar olib borish, qonun hujjatlarining tegishli normalarini sharhlash, milliy qonunchilikni takomillashtirish hamda konstitutsiyaviy huquq, ma'muriy huquq, inson huquqlari fanlarini o'qitish va ilmiy-nazariy jihatdan yanada boyitishda foydalanish mumkinligida ifodalanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati fuqarolar murojaatini ko'rib chiqish va hal etish bo'yicha normativ-huquqiy hujjatlar, huquqni qo'llash amaliyoti hamda murojaatlar bilan ishlash mexanizmini takomillashtirishda, shuningdek, davlat ijro hokimiyati organlarining amaliyotida foydalanish, fuqarolarga murojaat qilish huquqi bo'yicha zarur ma'lumotlar berishga xizmat qilishi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Tadqiqot ishi bo'yicha olingan ilmiy natijalardan quyidagilarda foydalanilgan:

har bir shaxs o'zi va boshqalar bilan birgalikda fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlariga murojaat qilish huquqini belgilashga oid taklifdan yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 40-moddasi birinchi xatboshisini ishlab chiqishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Demokratik institutlar, nodavlat tashkilotlar va fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari qo'mitasining 2024-yil 12-iyundagi 04/10-10-34-son dalolatnomasi). Mazkur taklif shaxsning nafaqat davlat tashkilotlariga, balki fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlariga murojaat qilishi huquqining konstitutsiyaviy darajada belgilanishi mamlakatda fuqarolik jamiyatining fundamental xususiyatlarini kengaytirishga xizmat qilgan;

har bir shaxs O'zbekiston Respublikasining qonunchiligiga va xalqaro shartnomalarga muvofiq, agar davlatning huquqiy himoyaga doir barcha ichki vositalaridan foydalanib bo'lingan bo'lsa, insonning huquq va erkinliklarini himoya

qiluvchi xalqaro organlarga murojaat etish huquqini belgilashga oid taklif yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 55-moddasi to'rtinchi xatboshisini ishlab chiqishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Demokratik institutlar, nodavlat tashkilotlar va fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari qo'mitasining 2024-yil 12-iyundagi 04/10-10-34-son dalolatnomasi). Ushbu taklif natijasida insonning huquq va erkinliklarini samarali himoya qilishning yakdil, tizimli shakli vujudga keldi;

tegishli xalq deputatlari Kengashi deputatini hujjatlar, zarur axborot va ma'lumot materiallari bilan ta'minlash, shuningdek, deputatlik faoliyati bilan bog'liq masalalar bo'yicha mutaxassislarning maslahatlarini uyushtirish viloyat, tuman, shahar hokimliklari zimmasidan xalq deputatlari viloyat, tuman, shahar Kengashi kotibiyatiga o'tkazish lozimligi oid taklif O'zbekiston Respublikasining "Xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar kengashi deputatining maqomi to'g'risida"gi 706-II-son Qonunining 16-moddasi birinchi xatboshisini tahrir qilishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi demokratik institutlar, nodavlat tashkilotlar va fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari qo'mitasining 2020-yil 4-noyabrdagi 05/1-04-230-son dalolatnomasi). Mazkur taklif mahalliy boshqaruvda hokimiyatlar bo'linishi prinsipini ta'minlash hamda fuqarolarning xalq deputatlari viloyat, tuman, shahar Kengashiga qilgan murojaatlarini samarali hal qilish mexanizmlarini takomillashtirishga xizmat qilgan;

barcha darajadagi davlat organlari va tashkilotlari, mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari rahbarlarining jismoniy shaxslarni va yuridik shaxslarning vakillarini joylarda sayyor qabul qilish bo'yicha jadvallari (yillik yoki yarim yillik) ishlab chiqilib, mos ravishda yuqori turuvchi davlat organlari va tashkilotlari rahbarlari, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi raisi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimlari tomonidan tasdiqlanishini belgilashga oid taklifdan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 7-maydagi 341-son qarori bilan tasdiqlangan "Davlat organlarida, davlat muassasalarida va davlat ishtirokidagi tashkilotlarda jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlash tartibi to'g'risida"gi namunaviy nizomning 55¹-bandini to'ldirishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi Yuridik ta'minlash boshqarmasining 2021-yil 1-maydagi 12\21-19-sonli dalolatnomasi). Ushbu taklif orqali sayyor qabullarni aniq belgilangan tartib va muddatlarda amalga oshirish amaliyoti yo'lga qo'yilib, bu ularning samaradorligini oshirishga xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 2 ta xalqaro va 3 ta respublika ilmiy-amaliy konferensiyalarida hamda davra suhbatlarida sinovdan o'tgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Ushbu tadqiqot natijalari bo'yicha jami 19 ta ilmiy ish, jumladan, 13 ta ilmiy maqola (bulardan 2 tasi xorijiy jurnallarda) va 1 ta o'quv-uslubiy qo'llanma nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, sakkiz paragrafnii o'z ichiga olgan uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati hamda ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 133 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning kirish qismida mavzuning dolzarbligi va zarurligi, tadqiqotning respublika fan-texnika va texnologiyalarni rivojlantirishning asosiy ustuvor yo'nalishlariga muvofiqligi, muammoning o'rganilganlik darajasi, dissertatsiya ishining oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ish rejasi bilan o'zaro bog'liqligi, tadqiqotning maqsad va vazifalari, obykti va predmeti, metodlari, ilmiy yangiligi va tadqiqotning amaliy natijalari, ushbu natijalarning ishonchliligi, tadqiqotning ilmiy va amaliy ahamiyati, joriy qilinishi, aprobatsiyasi hamda natijalarining e'lon qilinganligi, dissertatsiyaning hajmi va tuzilishi kabi masalalar yoritilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi **"Inson huquqlari tizimida murojaat qilish huquqining o'rni"** deb nomlangan bo'lib, unda fuqarolarning murojaat qilish huquqining rivojlanishi va huquqiy asoslari, murojaatlar tasnifi: turlari va shakllari, fuqarolarning murojaatlari bilan ishlash prinsiplari tahlil qilingan.

Insonning murojaat qilish huquqi eng qadimiy huquqlardan biri bo'lib, dastlab u shaxsiy ehtiyojlarni qondirishga qaratilgan institut sifatida namoyon bo'lgan. Jamiyat taraqqiyoti, inson huquqlarini mustahkamlovchi hujjatlarning shakllanishi va ulardan samarali foydalanish uchun harakat qilish hamda kurashish zaruratining ortishi natijasida murojaat qilish huquqi inson huquqlari tizimida kengayib, izchil mustahkamlanib borgan. Ushbu huquq orqali shaxslar nafaqat o'z shaxsiy manfaatlarini himoya qilish imkoniyatiga ega bo'libgina qolmay, balki jamiyat va davlat ishlarida bevosita ishtirok etish imkoniyatini ham qo'lga kiritgan.

Dissertatsiyada murojaat qilish huquqining huquqiy tavsifi, asoslari va oqibatlariga oid masalalar bo'yicha mahalliy olimlar (A.X. Saidov, X.T. Azizov, Z.M. Islomov, M. Mirakulov, M.A. Tillaboyev, U. Topilxonov, X. Odilqoriyev, I.A. Xamedov, O.T. Xusanov, N. Bekmirzayev, S. Yusupov, S. Yuldashov, O. Fayziyev, Y. Ollomov) hamda xorijiy tadqiqotchilar (P.A. Belyakov, A.A. Dvorak, S.V. Kalinina, V.A. Metsheryagina, N.A. Rudakova, M.V. Skryabina, A.A. Titov, M.V. Baglay, N.S. Minko) tomonidan olib borilgan ilmiy izlanishlarda tahlil qilingan.

Ushbu bobda tadqiqotchi tomonidan sobiq Ittifoq davridan boshlab hozirgi kungacha fuqarolarning murojaat qilish huquqining huquqiy asoslari izchil takomillashib borgani asoslab berilgan. Shu bilan birga, mazkur sohada maxsus milliy qonunchilikning shakllanishi va rivojlanish jarayoni ham yoritilgan. Muallifning fikricha, fuqarolarning murojaat qilish huquqi deyarli barcha davlatlarda asosiy huquqlardan biri sifatida e'tirof etilgan bo'lsa-da, uning maqsadi va natijalariga nisbatan turlicha yondashuvlar mavjud.

Mazkur bob doirasida tadqiqotchi xorijiy va milliy huquqshunos olimlarning fuqarolarning murojaat qilish huquqi tushunchasiga oid yondashuvlarni chuqur o'rganib chiqib, fuqarolarning murojaat qilish huquqidan foydalanishi ularning huquq-erkinliklarini ta'minlovchi muhim omil bo'lishi bilan faqat fuqarolar taqdiriga ta'sir qilib qolmay, u davlat faoliyatini samarali yuritishga, muammolarni aniqlashga, mamlakatda haqiqiy ahvolga baho berishga ham ta'sir qilishi, murojaatlar orqali xalqning fikri ma'lum bo'lishi, xalqning orzu-istagi, talabi

aniqlanishi haqida xulosa qilgan. Uning fikricha, buni amalga oshirilgan konstitutsiyaviy islohotlar ham yaqqol ko'rsatadi.

Muallifning fikricha, murojaat qilish huquqi orqali mamlakatdagi siyosiy va iqtisodiy ahvol, aholining kayfiyati hamda davlat hokimiyatiga bo'lgan ishonch darajasi aniqlanishi mumkin. Davlat organlari murojaatlar tahlilidan uzoq muddatli strategik hujjatlarni ishlab chiqishda foydalanadi. Murojaatlarning xarakteri va ular bilan ishlash holatiga qarab mamlakatdagi demokratiya darajasi baholanadi. Tadqiqotda murojaat qilish huquqining siyosiy huquqlar tizimiga kiritilishi, shu bilan birga, ushbu huquqdan chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar ham foydalanishi mumkinligi asoslab berilib, tegishli xulosalar chiqarilgan.

Tadqiqotning mazkur bob bo'yicha asosiy xulosasi shundan iboratki, murojaat qilish huquqi mustaqil huquq hisoblanadi, biroq u boshqa huquqlarni amalga oshirishni ta'minlovchi kafolatlovchi huquq sifatida ham namoyon bo'ladi. Shu bilan birga, ayrim hollarda murojaatlar salbiy oqibatlarni, xususan, tuhmat yoki ig'vo mazmunidagi murojaatlarni keltirib chiqarishi mumkinligi qayd etilgan. Bunday holatlarda boshqa shaxslarning huquq va manfaatlariga zarar yetkazilishi ehtimoli mavjud bo'lib, murojaatlar bilan ishlash jarayonida ushbu jihat doimo e'tiborda bo'lishi lozimligi ta'kidlangan.

Tadqiqotchi dissertatsiyada yangi tahrirdagi Konstitutsiyada murojaat qilish huquqining yanada kengaytirilganligi va uning kafolatlari kuchaytirilganligiga alohida urg'u bergan. Muallifning fikricha, Konstitutsiyada murojaat qilish huquqi bilan bir qatorda murojaatlarning turlari va shakllari belgilangan bo'lib, ularni amalga oshirish usullari maxsus qonunchilik bilan tartibga solingan. Ariza, taklif va shikoyat murojaat turlarining har biri turli maqsadlarni ko'zlagan bo'lib, ularni aniq farqlash murojaatlar bilan ishlash samaradorligini oshiradi hamda mamlakatdagi siyosiy-ijtimoiy holatga to'g'ri baho berish imkonini yaratadi. Ushbu masalalar dissertatsiyada batafsil tahlil qilingan.

Dissertantning fikricha, yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida fuqarolar va yuridik shaxslar, agar sud orqali himoya qilishning boshqa barcha vositalaridan foydalanib bo'lingan bo'lsa, sud ko'rib chiqilishi tugallangan muayyan ishda sud tomonidan o'ziga nisbatan qo'llanilgan qonunning Konstitutsiyaga muvofiqligi to'g'risidagi shikoyat bilan O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy sudiga murojaat qilish huquqi mustahkamlanganligi natijasida fuqarolarning konstitutsiyaviy huquq va manfaatlari ta'minlanishi (konstitutsiyaviy sud faoliyati orqali) kuchaytirildi. Murojaat instituti *yangi element* – "*konstitutsiyaviy shikoyat*" bilan boyidi.

Muallifning fikricha, Konstitutsiyaviy sudga ariza, taklif bilan murojaat qilinmaydi, faqat shikoyat xarakteridagi murojaat Konstitutsiyaviy sud faoliyatining obyekt bo'ladi. Kelajakda fuqarolar tomonidan Konstitutsiyaviy sudga qonunlarni Konstitutsiyaga moslashtirish, ayrim Konstitutsiya normalariga sharh berishni so'rab murojaat qilish (taklif berish) kabi qoidalarni mustahkamlash bilan bog'liq masalalarni chuqur o'rganish lozim.

Tadqiqot davomida shaxsning murojaat qilish huquqi, uning konstitutsiyaviy-huquqiy asoslari, murojaatlarni ko'rib chiqish mexanizmlarining mavjudligi, mazkur munosabatlarda ishtirok etuvchi subyektlarning aniqligi ushbu huquqning mustaqil huquqiy institut ekanligidan dalolat berishi ilmiy asoslangan. Shuningdek,

tadqiqotchiga ko‘ra, huquqiy institut to‘laqonli bo‘lishi uchun u muayyan prinsiplar asosida faoliyat yuritishi zarur. Shu bois murojaatlar bilan ishlashning e‘tirof etilgan prinsiplar tizimi mavjud bo‘lib, ular O‘zbekiston Respublikasining “Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to‘g‘risida”gi Qonuni 4-moddasida mustahkamlab qo‘yilgan. Mazkur modda doirasida qonuniylik, murojaatlarni o‘z vaqtida ko‘rib chiqish, murojaatlarga nisbatan talablarning bir xilligi, shaxsning huquq va erkinliklari hamda qonuniy manfaatlariga rioya etilishi, byurokratizm va sansalorlikka yo‘l qo‘yilmasligi, shuningdek, murojaatlarni ko‘rib chiqishda shaffoflik va ochiqlik prinsiplari belgilangan bo‘lib, ular murojaat qilish huquqining amalda ro‘yobga chiqishini ta‘minlaydi.

Muallif ushbu bobda yuqorida sanab o‘tilgan prinsiplarning mazmun-mohiyati ochib berilib, ularga to‘liq rioya etilishi fuqarolarning konstitutsiyaviy huquqlarini ta‘minlashga xizmat qilishi hamda davlat organlariga bo‘lgan ishonchni oshirishga sabab bo‘lishini asoslab bergan. Shu bilan birga, amaliyotni o‘rganish va mamlakatda amalga oshirilayotgan islohotlarni tahlil qilish murojaatlar bilan ishlashda faqat mavjud prinsiplar bilan cheklanib qolmasdan, yangi prinsiplarni ham joriy etish zarurligini ko‘rsatadi. Jumladan, *murojaatlarni instansiyalar bo‘yicha yo‘naltirish, ularni ro‘yxatga olishning aniq va qat’iy tartibini belgilash, murojaatlar bo‘yicha qabul qilingan qarorlarning ijrosini ta‘minlash, buzilgan huquq va erkinliklarni tiklash, yetkazilgan zararni qoplash, murojaatlar bilan ishlash ustidan doimiy nazoratni amalga oshirish, qonun buzilishiga yo‘l qo‘ygan mas’ullar hamda tuhmat mazmunidagi murojaat mualliflarini javobgarlikka tortish va eng muhimi, murojaatlarni ko‘rib chiqish jarayoniga jamoatchilikni keng jalb etish kabi qoidalarni prinsiplar sifatida qonunchilikda mustahkamlash zarurligi taklif etilgan.*

Tadqiqotchining fikricha, shaxsning (fuqaroning) murojaat qilish huquqi konstitutsiyaviy huquq bo‘lib, boshqa huquqlar ma‘lum bir masalaga qaratilib, uni hal qilsa, murojaat qilish huquqi bir nechta jihatga qaratilgan, birinchidan, u fuqarolarning jamiyat va davlat boshqaruvida ishtirok etish huquqi; ikkinchidan, fuqarolarning o‘zlariga tegishli qonuniy huquqlaridan foydalanishini ta‘minlovchi huquq; uchinchidan, buzilgan huquqlarni tiklash vositasi (huquqi) hisoblanadi.

Dissertatsiyaning **“Murojaat qilish huquqini ta‘minlashning tashkiliy-huquqiy mexanizmlari”** deb nomlangan ikkinchi bobida murojaatlar yo‘llanadigan davlat organlari (muassasalari) tizimi, xalq qabulxonalarining huquqiy maqomi va ish faoliyati shakllari, “Elektron hukumat”ni murojaatlar bilan ishlash tizimiga tatbiq etishning tashkiliy-huquqiy asoslari tadqiq etilgan.

Muallifning fikricha, O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida murojaat qilinuvchi subyektlar doirasiga fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlarining kiritilishi mazkur institutning demokratik mohiyatini yanada kuchaytirgan. Ushbu yondashuv mutlaqo asosli bo‘lib, amaliyotda fuqarolar ko‘plab masalalar yuzasidan aynan mahalla institutlariga murojaat qilayotganligi bilan izohlanadi. Hozirgi kunda amalga oshirilayotgan davlat siyosati, xususan, “mahallabay” tizimining joriy etilishi, mahallalarning iqtisodiy va moliyaviy imkoniyatlari kengaytirilishi ko‘plab muammolarni bevosita mahalla darajasida hal etish imkonini bermoqda.

Bundan tashqari, dissertantning fikricha, Konstitutsiyada murojaat qilish subyektlari sifatida alohida davlat organlari yoki muayyan tashkilotlar emas, balki umumiy tarzda davlat organlari va tashkilotlari ko'rsatilganligi murojaatlar bilan ishlash barcha davlat organlari va tashkilotlarining majburiy vazifasi ekanligidan dalolat beradi. Ushbu organlarni faqat ularning faoliyat doirasi, vakolatlari va vazifalariga qarab tasniflash mumkin. Demak, fuqarolarning murojaatlarini ko'rib chiqish va ularning muammolarini hal etishdan birorta ham davlat organi ozod etilmagan. O'zbekiston Respublikasi Prezidentidan boshlab barcha markaziy davlat idoralari va ularning quyi bo'g'inlari murojaatlar bilan ishlash majburiyatiga ega. Biroq ular murojaatlarni hal etishda foydalanadigan usullari, vakolatlari, buzilgan huquqlarning tiklashdagi ishtirok darajasi, yetkazilgan zararni qoplash imkoniyatlari hamda murojaatlar to'g'risidagi qonunchilik buzilganda aybdorlarni javobgarlikka tortishdagi vakolatlariga ko'ra bir-biridan farqlanadi.

Tadqiqot jarayonida fuqarolarning murojaatlari bilan ishlashda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining tutgan o'rni va vazifalari uning konstitutsiyaviy maqomidan kelib chiqishi asoslab berilgan. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining murojaatlar bilan ishlashdagi roli hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 21-dekabrda "Yangi O'zbekiston ma'muriy islohotlari doirasida respublika ijro etuvchi hokimiyat organlari faoliyatini samarali tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-447-son qaroriga muvofiq Bosh vazir huzurida "Jismoniy shaxslarning murojaatlarini ko'rib chiqish bo'limi" tashkil etilganligi va uning ahamiyati tahlil qilingan. Dissertatsiyada O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining murojaatlar bilan ishlashdagi faoliyati murojaatlar sohasini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlarni qabul qilish va tasdiqlash, murojaatlar bilan ishlash jarayonini nazorat qilish, qonunchilik buzilishiga yo'l qo'ygan shaxslarni javobgarlikka tortish masalasini hal etish, shuningdek, murojaatlarni bevosita ko'rib chiqish yoki vakolatli organlarga yuborish kabi yo'nalishlar bo'yicha o'rganilgan.

Dissertatsiyada amaliy ma'lumotlar asosida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 28-dekabrda "Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni natijasi sifatida "Xalq qabulxonalari"ning tashkil etilishi va ularning faoliyati murojaatlar bilan ishlash tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqqanligi asoslab berilgan.

Muallif Xalq qabulxonalari mamlakat miqyosida fuqarolarning murojaat qilish huquqini to'siqlarsiz amalga oshirishni ta'minlovchi muhim institut hisoblanishini hamda davlat va xalq o'rtasidagi muloqotning eng samarali vositasi sifatida namoyon bo'lishini ta'kidlaydi. Dissertatsiyada Xalq qabulxonalari *vazifalari sakkiz guruhga, huquqlari esa to'rt guruhga ajratilib tahlil qilingan*. Ularning faoliyatini o'rganish natijasida respublika miqyosidagi dolzarb muammolar, hududlar va davlat organlari kesimidagi murojaatlar bilan ishlash holati aniqlanib, tegishli xulosalar chiqarilgan.

Dissertantning fikricha, murojaat qilish huquqi orqali fuqarolar o'z huquq va erkinliklarini amalga oshiradi, buzilgan huquqlarini tiklaydi, yetkazilgan zararni qoplaydi hamda o'zlari uchun qulay shart-sharoitlar yaratadi. Shu bois murojaat

qilish huquqini amalga oshirish jarayonida fuqarolar noqulay holatlarga tushmasligi, ortiqcha vaqt va mablag‘ sarflamasligi muhim hisoblanadi.

Ikkinchi bob doirasida tadqiqotchi tomonidan murojaatlar bilan ishlash sohasida “Elektron hukumat” tizimining joriy etilishi ahamiyati tahlil qilingan. “Elektron hukumat” tizimining joriy etilishi natijasida aholiga xizmat ko‘rsatish tizimi tubdan yangilandi, davlat xizmatlari turlari keskin ko‘paydi. Bu holat fuqarolarning tegishli masalalar bo‘yicha shikoyatlari kamayishiga olib keldi. “Elektron hukumat”ni keng joriy etish mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishga, davlat boshqaruvi tizimini takomillashtirishga xizmat qilgan holda, ko‘plab muammolarni avtomatik tarzda hal etadi va natijada fuqarolarning murojaatlari, ayniqsa, shikoyatlar sonining qisqarishiga olib keladi.

Muallif tomonidan “2022 – 2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi”ning 9-maqsadida belgilangan elektron hukumat tizimini rivojlantirish va elektron davlat xizmatlari ulushini 100 foizga yetkazish vazifasi tahlil qilingan, dissertatsiyada mazkur maqsadning ahamiyati hamda unga erishish yo‘llari yuzasidan ilmiy mulohazalar bildirilgan.

Dissertatsiyada O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 2-fevraldagi “Sun‘iy intellekt texnologiyalarini jadal joriy etish uchun shart-sharoit yaratish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori ham tahlil qilingan. Fuqarolarning murojaatlari bilan ishlashda elektron vositalarni qo‘llashda Prezidentning Virtual qabulxonasi alohida o‘rin tutadi. Tadqiqot davomida o‘tkazilgan ijtimoiy so‘rovlar natijasida elektron hukumat tizimini joriy etishning ijobiy jihatlari bilan bir qatorda ayrim muammolar ham aniqlangan. Elektron vositalar va uyali aloqa imkoniyatlari kengayib borayotgan bo‘lsa-da, ayrim hududlarda ulardan foydalanish darajasi yetarli emasligi ma‘lum bo‘ldi. So‘rov natijalariga ko‘ra, buning asosiy sababi aholining barcha qatlamlari, ayniqsa, yoshi katta fuqarolarning ushbu texnologiyalardan foydalanish ko‘nikmalariga to‘liq ega emasligidir. Shu munosabat bilan dissertatsiyada aholining turli qatlamlari o‘rtasida raqamli savodxonlikni oshirish bo‘yicha tizimli chora-tadbirlar ishlab chiqish zarurligi asoslab berilgan.

Dissertatsiyaning uchinchi bobi **“Murojaatlar bilan ishlash tizimini yanada takomillashtirish yo‘llari”** deb nomlanib, unda murojaatlar huquqini belgilashning xorijiy tajribasi hamda murojaatlar bilan ishlash tizimida yangi yo‘nalishlar va jihatlar tahlil qilingan.

Tadqiqotchining fikricha, dunyoning barcha mamlakatlarda fuqarolarning murojaatlari davlat boshqaruvining shaklidan qat‘i nazar muhim ijtimoiy-huquqiy hodisa sifatida e‘tirof etiladi. Murojaatlar demokratik jamiyat sharoitida fuqaroning davlat faoliyatiga ta‘sir ko‘rsatish imkoniyatini, jamiyatdagi ijtimoiy-siyosiy ahvolni, davlat hokimiyatining xarakterini, fuqarolarning huquqiy ongi, ma‘naviyati, turmush tarzi hamda davlatga bo‘lgan munosabatini aks ettiruvchi institut sifatida namoyon bo‘ladi. Shu ma‘noda fuqarolarning murojaatlari har qanday mamlakatda jamiyat va fuqaro holatini ko‘rsatuvchi o‘ziga xos “barometr” vazifasini bajaradi. U fuqarolarning faolligi, huquqiy ongi va turmush darajasini ifodalovchi muhim mezon hisoblanadi.

Xorijiy mamlakatlar konstitutsiyalaridagi murojaat qilish huquqiga oid normalar tahlili shuni ko'rsatadiki, ushbu huquq:

- fuqarolarning jamiyat va davlat hayotida ishtirokini ta'minlaydi hamda demokratiyaning muhim ifodasi hisoblanadi;
- fuqarolarning davlat faoliyatiga ta'sir ko'rsatish imkoniyatini yaratadi;
- davlat bilan fuqarolar o'rtasidagi aloqaning muhim shakllaridan biri sanaladi;
- fuqarolarning huquq va erkinliklari hamda qonuniy manfaatlarini himoya qilish, buzilgan huquqlarni tiklashning samarali vositasi hisoblanadi;
- mamlakatdagi turli sohalarining ahvoli, fuqarolar faolligi, bilim va huquqiy ongi darajasini ko'rsatuvchi indikator vazifasini bajaradi.

Dissertatsiyada xorijiy davlatlar konstitutsiyalarini o'rganish shuni ko'rsatadiki, ularda murojaat qilish huquqini mustahkamlashda umumiy yondashuvlar saqlanib qolgan holda, milliy xususiyatlardan kelib chiqadigan o'ziga xos jihatlar ham mavjud. Bu holat tabiiy bo'lib, har bir mamlakatning tarixiy rivojlanish yo'li, milliy mentaliteti, turmush tarzi, ijtimoiy ehtiyojlari va amalga oshirilayotgan islohotlari turlicha ekanligi bilan izohlanadi.

Dissertant tomonidan xorijiy davlatlar konstitutsiyalarini o'rganish asosida murojaat qilish huquqiga oid quyidagi o'ziga xos jihatlar ko'rsatib o'tilgan:

Birinchidan, ayrim xorijiy davlatlar konstitutsiyalarida fuqarolarning murojaatlari faqat davlat organlariga emas, balki jamoat birlashmalariga va o'zini o'zi boshqarish organlariga ham yo'llanishi mumkinligi belgilangan. Amalda jamoat birlashmalari, kasaba uyushmalari, siyosiy partiyalar va fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari ishtirokisiz barcha ijtimoiy muammolarni hal etish imkoniyati mavjud emas.

Ikkinchidan, murojaatlarning turlari mamlakatlarda turlicha atamalar orqali ifodalanadi. Jumladan, "petitsiya", "talab", "xabar", "arznoma", "iltimos" kabi tushunchalar qo'llaniladi. Ko'plab xorijiy mamlakatlarda petitsiya fuqarolarning davlat boshqaruvi, ijtimoiy hayotni tashkil etish, atrof-muhitni muhofaza qilish yoki hududiy rejalashtirish masalalari bo'yicha kollektiv tarzda ilgari suriladigan va ko'pchilik tomonidan imzoladigan yozma murojaat hisoblanadi.

